TASHKIL ETISH

Karimov Dilshod Nematjon o'g'li - Bo'stonliq tumani 3-umumta'lim maktab o'qituvchisi

Bugungi kunda har qanday mamlakatning kuch – qudrati uning intellektual salohiyati bilan belgilanadi. Bu esa bevosita ta'lim sifatiga bog'liq. Mamlakatimiz ta'lim tizimida innovatsiya, integratsiya va o'qitish sifati monitoringini takomillashtirish bo'yicha amalga oshirilayotgan ilmiy izlanishlarda o'quv-tarbiya jarayoni natijaviyligiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bunday yo'nalishdagi tadqiqotlarda o'qitish sifati monitoringining nazariy-metodologik asoslarini takomillashtirish, kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta'lim standartlarini tatbiq etish, uzluksiz ta'lim tizimiga innovatsion g'oyalarni, axborot-kommunikatsion texnologiyalarni joriy qilishga oid ilmiy jihatdan asoslangan takliflarni, tavsiyalar tizimini ishlab chiqish, ta'lim va o'qitish sifatiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash, o'qitish sifati monitoringini avtomatlashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 23-sentyabrdagi O'RQ-637-son "Ta'lim to'g'risida" Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" PF-60-sonli farmonda belgilab bergan vazifalarni amalga oshirish borasida ta'lim tizimida olib borilayotgan islohotlar natijasida tashkil qilingan va qilinayotgan ta'lim muassasalari zimmasiga har tomonlama yetuk barkamol avlodni tarbiyalashda ulkan hissa qo'shish topshirilgan. Ta'lim tizimiga pedagogik va axborot - kommunikatsiya texnologiyalarini olib kirish bugungi kunning muhim masalalari sirasiga kiradi. Ta'lim-tarbiya jarayoniga axborot- kommunikativ texnologiyalarni joriy etish orqali bir qancha qulayliklar yaratiladi.

An'anaviy o'qitish texnologiyalarining kamchiliklari to'g'risida pedagogika sohasidagi ko'pgina adabiyotlarda ba'zi fikrlar mavjud. Jumladan, V.I.Oneshinko va M.N.Gendillarning fikricha, hozirgi vaqtda ma'ruza - bu umumlashtiruvchi jarayonni bildirib, bir tomondan o'qituvchining ma'lumotlarini jamlab berishini ta'minlasa, ikkinchi tomondan, o'quvchilarning tishunish va fikrlash jarayonini ifodalaydi. Ma'ruza o'qishda o'qituvchi berilayotgan materialni har xil ko'rinishda (nutqning darajasi, past yoki baland, takrorlash, qo'shimcha namoyish qilish) bayon qilishi mumkin. Boshqa tomondan, o'qituvchi o'quvchilarga bunga qachon ehtiyoj tug'ilayotganligini aniq bilmasligi mumkin. Ko'rgazmali qurollardan foydalanib dars berish ta'limning ko'rgazmali metodlari qatoriga kiradi. Ko'rgazmali qurollarning xarakteri o'quv materiallarini tushunishga muhim ta'sir ko'rsatadi, o'quvchi fikrining mazmuni va tuzilishini belgilaydi. Ta'lim jarayonining pedagogik-psixologik qonuniyatlari shu narsani ko'rsatadiki, o'qish - o'qitishdagi ko'rgazmalar, nafaqat surat vazifasini, shu bilan birga kognitiv (ko'z bilan kuzatiladigan) vazifani bajargan taqdirdagina o'zlashtirish unumdorligi oshadi. Aynan shuning uchun kognitiv grafika-su'niy intellect nazariyasiga asosan murakkab ob'yektlar kompyuter suratchalari ko'rinishida tasvirlanadi. Bunda o'quv materialining tarkibiy tuzilmasi sifatida rangli ko'rinishdagi kognitiv - grafik o'quv elementlari (rasmlar bloki) xizmat qiladi. Shuning

uchun rasmlar o‘quv materialining asosiy bosh elementi hisoblanadi. Bu esa, o‘z navbatida birinchidan o‘quvchining ko‘rish va fazoviy fikrlash qobilyatini rivojlantiradi, chunki bunda o‘rganish jarayoniga miyaning o‘ng yarim shari boy imkoniyatlari qo‘shiladi, ikkinchidan, o‘quv materiali mazmunini o‘zida zich joylashtirib, uni ravshan ifoda etuvchi rasm o‘quvchida tizimli bilim shakllanishiga yordam beradi .Uchunchidan, kompyuter ekranidagi rangli suratlar, o‘quv - axborot materialini o‘quvchi tomonidan qabul qilish va eslash samarasini oshiradi hamda o‘quvchilarni estetik tarbiyalash vositasi bo‘lib xizmat qiladi.

Axborot texnologiyalari vositasida o‘quvchining bilim olishi, fikrlashida, xuddi ikkita mexanizmdan foydalangandek bo‘ladi: ularning biri belgili (simvolli) bo‘lsa, ikkinchisi geometrik (algebrik)bo‘ladi. Kognitiv grafikaning asosiy vazifasi bilim olish jarayonini faollashtiruvchi fikrlashning simvolli va geometrik mexanizmlarini o‘z ichiga olgan, bilim berish-uyg‘unlashgan modellarini yaratishdan iboratdir. Grafik axborot miyaning o‘ng yarimsharlari imkoniyatlarini faollashtiradi, oliy ma’lumotli mutaxassis uchun zarur bo‘lgan tasviriy fikrlash qobilyatini, intuitsiyani rivojlantiradi. Intuitsiyaning eng katta boylik ekanligi ta'kidlanib, A.Eynshteyn shunday degan edi: “Mening ishonchim komilki, bizning fikrlashimiz asosan belgilar orqali, shu bilan birga biz anglamasdan kechadi”. Shuning bilan birga ko‘rgazmali axborotning o‘g‘zakidan ko‘ra ahamiyatliroq va samaraliroq ekanligini ta'kidlash lozim. Odam fiziologiyasi fanining ma'lumotlariga ko‘ra, ko‘rish analizatorining axborotni o‘tkazish qobilyati, eshitish analizatoriga nisbatan juda yuqoridir. Bu esa, o‘z navbatida, ko‘rish tizimiga inson qabul qiladigan axborotning qariyib 90 foizini yetkazish imkoniyatini beradi. Shu bois ham o‘quv materiali (axborot) qabul qilish va eslashga og‘zaki axborotni qabul qilish hamda eslashga nisbatan kam vaqt sarf qilinadi.

Ta’lim jarayonida ko‘rgazmali axborot ishlatilganda o‘quvchilarda taassurot hosil bo‘lishi uni og‘zaki bayon qilishga nisbatan o‘rtacha 5-6 marotaba tezroq kechadi. O‘quvchining ko‘rgazmali axborotlardan ta’sirlanishi, hayratlanishi og‘zaki yetkazilgan axborotga nisbatan ancha yuqori bo‘lishini ta’kidlash joizdir. Ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil etishda, o‘quv materialini yetkazishning og‘zaki usuliga qayta - qayta takrorlash osonligini va uning aniqligini hisobga olish zarurligini ta’kidlash lozim. Axborot texnologiyalari yordamida ta’lim jarayonini rejalashtirishda o‘quv materialini o‘quvchiga ko‘gazmali tarzda uzatishda uning yana bir muhim afzalligini, ya’ni ko‘rgazmali axborotda, uning o‘quvchi tomonidan qabul qilinishi va eslash samarasi, mazkur axborot ko‘rsatilgandan keyin o‘tgan muddatning uzoqligiga bog‘liq emasligini yodda tutish lozim. Ayni paytda, buni og‘zaki axborotni o‘zlashtirish uchun aytib bo‘lmaydi. Shuning bilan bir qatorda ko‘rgazmali metodlarni og‘zaki metodlardan ajratib bo‘lmaydi, chunki har bir ko‘rgazmali qo‘llanma tushintiriladi, tahlil qilinadi, o‘rganilayotgan masalani yorituvchi qo‘shimcha yoki asosiy axborot manbai hisoblanadi. Ko‘rgazmali qo‘llanmalardan foydalanishda o‘quvchining hissiy obrazlariga, sezgi va idrokiga ko‘proq tayanib ish tutish, uning bilish faoliyatiga o‘ziga xos struktura baxsh etadi. O‘quvchi obrazli, ravon fikr yuritadi, bu hol ularni tushuntirishga o‘rganish uchun yaxshi negiz bo‘ladi. O‘qituvchi avvalo, o‘quvchining ma’lum bir o‘quv materialini o‘zlashtirishi jarayonida hissiy obraz

qanday o'rin egallashini va qanday ahamiyatga molik bo'lishini bilishi kerak. Nazariya qanchalik chuqurlashsa, hissiy idrokdan bilimlar shuncha ko'proq abstraktlashadi.

O'quvchilarning fikrlash faoliyatini axborot texnologiyalari yordamida ko'rgazmali tashkil qilishda uch asosiy vazifani bajarish lozim.

Birinchi vazifa - ko'rgazmali qurol asosida o'rganilayotgan narsa yoki hodisaning original obrazini yaratish;

Ikkinchi vazifa - ko'rgazmali qurolning o'zi o'quvchilarning muayyan maqsad bilan kuzatishini tashkil etish;

Uchunchi vazifa - nazariy bog'liqlik va mazmuniga mos tushunchalarni hosil qilish yoki o'quv vazifalarini bajarish jarayonida obrazdan mohirona foydalanib, uning mazmunini ifodalovchi harakat kiritish va tushuntirishdir.

Bundan ko'rinib turibdiki, axborot texnologiyalari yordamida o'quv materiallarini ko'rgazmali materiallar yordamida obrazli ko'rinishida ifodalash orqali ta'lim metodlaridagi: og'zaki tushuntirish, ko'rgazmali va amaliy metodlarga xos xususiyatlarini amalga oshirish imkoniyatini yaratish mumkin ekan. Ta'lim metodlarining birgalikda bajarilishi o'quvchilarning o'quv materialini o'zlashtirishni oshirish, tushunchalar ko'rinishida fikr mulohaza yuritishi va aqliy o'sishiga zamin yaratadi.

Kompyuter taqdimotini tayyorlashda o'qituvchi mavzuni aniq, qisqa va tushunarli tarzda berishi, tezislardan foydalanishi, ko'proq uning multimedia xususiyatlari, ya'ni ranglar, ovoz va rasmlardan fodalanishi zarur. Birdaniga, juda ham ko'p mavzuga oid raqamlar va faktlarning berilishi o'quvchilarni charchatish bilan birga, ularni zeriktirishi ham mumkin. O'tilgan mavzuni qaytarish va uyga vazifa berishda ham o'qituvchi slaydlar orqali namuna sifatida yechilgan misollarni ko'rsatishi maqsadga muvofiqdir.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, kompyuterning didaktik imkoniyatlarini boshqa hech qanday texnik vosita bilan taqqoslab bo'lmaydi. Shunday ekan, axborot texnologiyalari ta'lim jarayonida quydagi vazifalarni yechish imkonini beradi: didaktik-kompyuter dasturlaridan ko'rgazmali qurol sifatida foydalanish, uslubiy-mavzuni tushuntirishda, dars natijalarini tahlil etishda kompyuterni ishlatish usullarini belgilash, tashkiliy-ta'lim jarayonini qisqa vaqt ichida samarali tashkillashtirish, ta'limiy -o'quvchilarda o'tilgan mavzuni mustahkamlash va ularda axborot texnologiyalari bilan ishlash ko'nikmalarini shakllantirish. Darsda kompyuterdan foydalanish nafaqat ta'lim vaqtini tejaydi, shu bilan birgalikda ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi. Axborot texnologiyalaridan ta'lim jarayonida foydalanilganda ta'lim-tarbiya ishlarining samaradorligi oshadi, demak barkamol avlod va etuk mutaxassislarni tarbiyalashda axborot texnologiyalari muhim omil bo'lib hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Begimqulov U.Sh. Pedagogik ta'lim jarayonini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqaruv nazariyasi va amaliyoti. ped. Fan.dok... dis. – T., 2007-305 b

2. Ishmuxamadov R. Abduqodirov A. Pardaev A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent 2008 – 181 bet.